

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Qo'qon universiteti, Ta'lim kafedrası professori
pedagogika fanları doktori (DSc),
Xurvalieva Tarmiza Latipovna*

Annotatsiya.

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga emotsional zo'riqishning psixologik jihatlari nazariy va amaliy tomondan tahlil etilgan.

Emotsional zo'riqish, stress holatini paydo bo'lishi va uning belgilari keltirilgan. Bolalardagi emotsional rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Xulq-atvor buzilishi va uning sabablari asoslangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda artpedagogika va art-texnologiyalarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Artpedagogikaning ilmiy-metodik jihatlari yoritilgan. Bolalardagi ruhiy zo'riqishni bartaraf etishda artterapiyaning afzallik tomonlari borasidagi fikrlar bayon etilgan. Artterapiya turlari va ularni amaliyotga tatbiq etishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: emotsional, mental, motiv, kommunikativ, faoliyat egoizm, art pedagogika, art terapiya, psixologik terapiya, ko'nikma, qadriyat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishida nafaqat bilim va ko'nikmalarni aniq belgilangan ko'rsatkichlari balki, ularning emotsional rivojlanishi ham yetarli darajada bo'lishi talab etiladi. Emotsiyalar bolalar faoliyatini tashkil etishning muhim vositasi hisobalanadi. Emotsiya bolani faoliyatga undaydi, tajribalarni egallash va mustaqil faoligiga tahsir qiladi, eng muhimi har qanday vaziyatga o'z munosabatini bildiradi. Bolalarning emotsional rivojlanishida ularning shaxsiy sifatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Ilk yosh davridanoq bolalar oiladagi emotsional-axloqiy tajribalarni o'zlashtira boshlaydi. Yahni ishonch va hurmat, oilaviy qadriyatlar, atrofdagi odamlar va ularning faoliyatiga munosabat shakllana boshlaydi. SHuning uchun oila va maktabgacha tahlim tashkilotida pedagog-tarbiyachilar hamda ota-onalar o'rtasida kelishgan holda bolalar uchun talablar bir xil qo'yiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga kattalarning emotsional holati tahsir ko'rsatadi va uzok muddat saqlanib qoladi. Oila ahzolari va pedagoglarning odo-axloqi bolalarning faolligi va faoliyatini belgilaydi. Bola kattalar bilan muloqot jarayonida rivojlanadi. Mazkur jarayon asosida bola va kattalarning emotsional birligi yaratiladi, asta –sekin hamkorlikda faoliyat yuritadi va ularning rivojlanishida muhim shart hisoblanadi. Kattalar va bolalarning birgalikdagi harakatlari natijasida nafaqat bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtiradi, balki bolalar mustaqil ravishda bajarish va ijtimoiy munosabatga kirisha boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning

ijtimoiylashuvi jarayoni murakkabroq kechadi. Chunki bola o'z atrofidagi kishilarning tahsiriga ko'ra ijtimoiy hayotga moslasha boshlaydi. Bolada ijtimoiy hayot va maktab tahlimiga moslashishida turli xil vaziyatlardagi zo'riqishlar, huddi kattalarday nizoli vaziyatdan chiqishga intilishlari psixologik himoyalani shga moyillikni yuzaga keltiradi. Psixologik himoyalani sh-shaxsning muqim barqaror rivojlanish tizimi bo'lib, u qo'rquv hissi, xavotir va nizolarni ongli ravishda bartaraf qilishga oyyo'naltirilganlikdir. 'sixologik himoyalani shning asosiy vazifasi-ijobiy "Men" obrazini shakllantirish, turli xil tashqi holatlardagi vaziyatlarni bola ongiga tahsir qilinishidan saqlanish, havotirlanishni susayishi va o'z-o'zini baholashni yuqori bo'lishi bilan chegaralanadi. Emotsiya bolani faoliyatga undaydi, tajribalarni egallash va mustaqil faoligiga tahsir qiladi, eng muhimi har qanday vaziyatga o'z munosabatini bildiradi.

Rus fiziologi I. Pavlov har qanday jismoniy faoliyat barqaror ijobiy kayfiyatni 'aydo qiladi, quvonch baxsh etadi [11]. Harakatni kamligi zararli ekanligini qator olimlar asoslagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda stress holatini bartaraf etishning bir qator turlari mavjud, masalan: noqulay vaziyatlarda kulgu va hazil-mutoyiba qilish, ertak qahramonlarini quvnoq va ijobiy sifatlarini tanlash suhbat uyushtirish. Ushbu tavsiyalar bolalardagi hayajonlanish, havotir va ortiqcha yuklamalarni bartaraf qiladi. Bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra, ularda hayotiy tajribalar yetarli emasligi sababli stressni bartaraf etish qiyinchilik tug'diradi.

N. Bexterev fikricha, "bolalardagi ruhiy zo'riqish, salbiy emotsiyani bartaraf etishning eng yaxshi vositalaridan biri jismoniy harakat sanaladi"[1].


Buguni kunda art-texnologiya 'edagogika va 'sixologiya sohasidagi dolzarb masala sanaladi. Bolalarning 'sixik salomatligi 'edagog va 'sixologlar, ota-onalarda jiddiy xavotirni uyg'otmoqda. Bolalarda va katta yoshdagilarda nevroz holatini ortib borishi turmush tarziga, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarga salbiy ta'sir ko'rsatya'di, jahldorlik, havotirlanish kabi hissiyotlar yuz berya'di. Bularning barchasi samarali 'sixologik-'edagogik usul va vositalarni izlash, negativ hodisalarni oldini olishni taqozo etadi. Bolalarda kommunikativ madaniyatni shakllantirish, ijodkorlik va ular o'rtasidagi muloqotchanlikni namoyon etishga undaydi.

4 yoshda bolalar tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishni istaydi va qiziqadi. O'rtoqlari bilan munosabatda bo'lish ularda shaxsiy sifatlarini rivojlantiradi, tashabbus ko'rsatadi, o'z imkoniyatlarini ko'ra oladi, o'z-o'zini anglashga o'rganadi. Psixologik va jismoniy salomatlik bolalarning emotsional va bilish faoliyatini belgilaydi hamda xarakteri, shaxsiy fazilatlarini rivojlanishiga tahsir qiladi, eng muhimi asab tizimi va psixik holati ham rol o'ynaydi.

Maktabgacha 3-5 yosh bolalar o'zining ichki ruhiy holatini anglaydi, tengdoshlarini emotsional holatiga qarab munosabat o'rnatadi. Bolalar tengdoshlari va

do'stlarini hissiy holatini juda yaxshi tushunadi, ularning hafaligi yoki qo'rquvi, 'arishonxotirligini sezadi. Bolalardagi emotsional rivojlanish ularni ijtimoiy o'zaro munosabatga kirishishlariga yordam beradi. Mazkur hissiyotlarni namoyon bo'lishi bolaning kayfiyati bilan bevosita bog'liq.

Har qanday shaxsdagi emotsiyalarning ikkita katta guruhga ajratish mumkin.



Bolalarda yuz beradigan salbiy emotsiya natijasida atrofidagilarga negativ munosabat 'aydo bo'ladi, ayniqsa tengdoshlari va tarbiyachi-'edagolarga nisbatan g'ayri noodatiy harakatlarni bajaradi. Salbiy hissiyotlar turlicha namoyon bo'ladi, hafa bo'lish, jahl, qo'rquv, umidsizlikka tushish. Maktabgacha yoshdagi bolaning emotsiyasi uning atrofidagi kattalar va o'zining ruhiy holati orqali vujudga keladi.

Barqaror ijobiy kayfiyat bolalarni 'sixik emotsional holatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotiga hamda ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi. Bolalarda kayfiyatni tez o'zgarishi, doimiy tushkin holatning sababi shundaki, ular nosog'lom muhit va noto'g'ri munosabat ta'sirida noqulay holatga tushadi. Doimiy ruhiy zo'riqish esa, stressni yuzaga keltiradi. Yuqorida sanab o'tilgan emotsional zo'riqish belgilari bolalarni stressda ekanligini ko'rsatadi. Biroq avval bunday holatlar kuzatilmagan bo'lsada.

Agarda bolalarda stress holati bo'lsa, uning bir qancha belgilar namoyon bo'ladi, masalan:

- uyqusizlik, bola juda qiyinchilik bilan uxlaydi va uyquasi notinch kechadi.
- charchoq, kun davomidagi ixtiyorsiz faoliyat unga ortiqcha yuklama bo'lishi mumkin.
- bola sababsiz xafa bo'lib yuradi.
- bezovtalanish, bola bunday holatda kattalar uni qo'llab-quvvatlashini istaydi, ularga intiladi.
- g'ayritabiiylik va o'jarlikni namoyon bo'lishi.
- bola tengdoshlari bilan o'yinda ishtirok etishni hojlamaydi, o'yin qoidasiga rioya etishda qiyinchilik yuz beradi.
- avval sezilmagan holatlar kuzatiladi, bahzida bola nimanidir chaynaydi yoki og'ziga soladi.
- ayrim vaqtlarda ishtahasi yo'qoladi.

- harakatlar buzilishi, qo'llarini qaltirashi, boshini qimirlatish, yelkalarini uchishi, kunduzgi hattoki kechki 'aytdagi siydik tutolmaslik.

- xotira 'asayishi, xayol va diqqatini tarqoqligi hamda faolligini oshirishga qaratilgan qiziqishlarini yo'qolishi kuzatiladi.

'sixolog va tarbiyachilar bolalardagi ushbu holatlar kuzatilmasada, ularni qayd qilib borishlari kerak. Bolalarni individual tarzda kuzatish va yordam berish choralari to'ish lozim.

Keltirilgan belgilar, bolalar xulq-avtori va o'z-o'zini his qilishda 'sixosomatik buzilishlarni 'aydo bo'layotganligini ko'rsatadi. Biroq mazkur holat nafaqat bolalarning sog'ligiga balki, shaxsiy sifatlarni shakllanishiga hamda fiziologik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, nevrozni keltirib chiqarishi mumkin. SHuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional zo'riqishni 'rofilaktika qilish eng dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bolalar ota-onalari ularning ularni rag'batlantirishi va baholashini istaydi. O'z imkoniyatlaridan ham yuqori bo'lgan vazifalarni bajarishga intiladi, chunki ular jismoniy va psixik imkoniyatini qay darajada ekanligini bilmaydi, hissiy -irodaviy kuchi kattalar qo'ygan talablarni bajara olmasligini anglamaydi. Masalan, qo'shiq kuylash qobiliyati bor bolalarga turli tanlovlar, tadbir va kontsertlarga ularning xoxish-istagini inobatga olmasdan jalb etiladi. Bola esa kattalar talabini bajarish lozim deb o'ylab, uni amalga oshirishga harakat qiladi. Biroq ortiqcha yuklama bolaning imkoniyatiga mos kelmaydi, natijada uning psixikasiga salbiy tahsir ko'rsatadi.

SHuning uchun sanab o'tilgan holatlar bolalarning atrofidagi ijtimoiy muhit va kattalarga bog'liq ekanligini tarbiyachi va ota-onalar anglashi muhim. Tarbiyachi-'edagolgar va ota-onalar har bir bolaning emotsional holatini diqqat bilan kuzatishi, ularning odo-axloqi, hatti-harakatini nazorat qilishi, bola ruhiyatidagi buzilishlarning sabablarini tushunishi lozim. Tarbiyachi va 'sixolog hamkorlikda bola hayotida yuz berayotgan muammoli vaziyatlarning eng samarali shakllarini izlashi va bartaraf etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Byuler, K. A. Altshuler, V. Moreyno . Ocherk duxovnogo razvitiya rebenka.per. M.: 2020.-222 s.
2. Davletshin. M.G., SH.Do'stmuhamedova va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.O'quv metodik qo'llanma.-T.: 2004-129 b.
3. Валиев С. Сказки для всей семьи. Арт-педагогика на практике. М.:2014-140с.
4. Vigotskiy L.S. Voprosi detskooy psixologii-SPb.: Soyuz, 1997.-224 s.
5. [Колягина](#) В.Г. Арт-терапия и арт-педагогика для дошкольников. Учебно-методическое пособие М.: Издательство: Прометей. 2016-150 с.

6. [Колягина](#) В.Г. Музыка-терапия в специальном образовании. Учебно-методическое пособие. М.:2019-140с.
7. [Колягина](#) В.Г. Психология страхов дошкольников. М.:2016-50 с.
8. Медведева Е.А и др. Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании: учебник для вузов. 2-е изд., испр. и доп. Москва.: Издательство Юрайт, 2023. 274 с.
9. Teshabayeva, Z. S. (2021). PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRESCHOOL TEACHERS IN THE FIELD OF CONTEXTUAL LEARNING TECHNOLOGIES. Academic research in educational sciences, 2(2), 1360-1367.
10. Хурвалиева Т.Л. Maktabgacha ta'limda art-texnologiyalardan foydalanish. //Mug'allim h m yzluksiz bilimlendirio' ilimiy-metodikalıyq jurnali.Nukus.2023,№1/1. P. 185-189.
11. Хурвалиева Т.Л. Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanish xususiyatlari. //Mug'allim h m yzluksiz bilimlendirio' ilimiy-metodikalıyq jurnali.Nukus.2023,№5/2. P. 311-315.
12. Павлов И. Мозг и психика. М.-1996-247 с.